AHMAD YASSAVIY IJODIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI

Otaqulova Dildora
“Surxon tongi” gazetasi muxbiri
https://doi.org/10.5281/zenodo.22916022

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida komil inson konsepsiyasining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Yassaviy hikmatlarida insonning ma’naviy kamolotga erishish yo’li, nafsni jilovlash, ruhiy poklanish sabr-qanoat, tavba, ilm va ma’rifat kabi tushunchalarning mazmuni yoritiladi. Maqolada Yassaviy hikmatlarining insonni ma’naviy yetuklikka undovchi jihatlariga e’tibor qaratiladi.
Kalit so’zlar: Ahmad Yassaviy, “Devoni hikmat”, komil inson, tasavvuf, nafs, ruhiy poklanish, ma’rifat, ishq, sabr, qanoat, tavba, mumtoz adabiyot.

Abstract. This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the concept of the "perfect human" (komil inson) in Ahmad Yasawi’s work, Divan-i Hikmat. Yasawi’s hikmats (wise sayings) elucidate the path to spiritual perfection and explore concepts such as curbing the ego (nafs), spiritual purification, patience and contentment, repentance, and the pursuit of knowledge and enlightenment. The article focuses on those aspects of Yasawi’s hikmats that inspire individuals to attain spiritual maturity.
Keywords: Ahmad Yasawi, Divan-i Hikmat, perfect human, Sufism, ego (nafs), spiritual purification, enlightenment, divine love (ishq), patience, contentment, repentance, classical literature.

Аннотация. В статье анализируется художественно-философская интерпретация концепции «совершенного человека» (комил инсон) в произведении Ахмада Ясави «Диван-и Хикмат». «Хикматы» (мудрые изречения) Ясави раскрывают путь к духовному совершенству и затрагивают такие понятия, как обуздание эго (нафс), духовное очищение, терпение и довольство, покаяние, а также стремление к знаниям и просветлению. Особое внимание в статье уделяется тем аспектам «хикматов» Ясави, которые побуждают человека к достижению духовной зрелости.
Ключевые слова: Ахмад Ясави, «Диван-и Хикмат», совершенный человек, суфизм, эго (нафс), духовное очищение, просветление, божественная любовь (ишк), терпение, довольство, покаяние, классическая литература.

Kirish. Ahmad Yassaviy nomini eshitishimiz bilan poklik, kamtarlik, o’zini-yu shuurini Allohga bag’ishlagan, islom dini aqidalarini ko’ngliga joylagan, halol, sodda hayot tarzini tanlagan shaxs ko’z oldimizda gavdalanadi. Ahmad Yassaviy shaxsini ta’rif-u tavsif qilib shunchalik ko’p rivoyat, afsonalar tarqalganki, hayot yo’lini ibrat namunasi sifatida o’rganmaslikning, o’rganibgina qolmasdan, uni shaxsiy namuna sifatida turmush tarzimizga aylantirmaslikning imkoni yo’q.

Ma’lumki, Ahmad Yassaviy Yassi shahrida ruhoniy-shayx oilasida dunyoga keldi. U yashagan muhit, shubhasizki, shaxsiyatini tarbiyaladi. Dastlab, Arslonbobdan, so’ngra Yusuf Hamadoniydan tasavvuf bo’yicha ta’lim oladi. Ustozi vafotidan so’ng shayx sifatida ovozalari tevarak atrofga yoyiladi. Insonga eng tez ta’sir o’tkazuvchi adabiy janr bu — she’riyat. Ahmad Yassaviy boshqa mutasavuflar singari o’z fikrlarini xalq orasida tarqatish maqsadida she’rlar bitdi. Uning she’rlari “hikmat”, to’plami esa “Devoni hikmat” deb yuritildi.

Ahmad Yassaviy ijodida insonning ichki dunyosi, nafs bilan kurashi, tavba, sabr, qanoat, ishq va ma’rifat kabi tushunchalar muhim o’rin egallaydi. Shoirning “Devoni hikmat” asarida

mazkur tushunchalar oddiy nasihat shaklidagina emas, balki insonning ruhiy kamolot yo'lini ifodalovchi badiiy vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Yassaviy nazarida, insonning haqiqiy kamoloti tashqi boylik yoki martaba bilan emas, balki uning qalbiy pokligi va ma'naviy yuksalishi bilan belgilanadi.

Qitmir itdin ibrat olg'il oshiq ersang,
Oqsoqlanib yo'ldin qolma sodiq ersang.
Erlar sevur yaxshi qulg'a loyiq ersang,
Loyiq bo'lg'on qullar yo'lda qolmas ermish.[1]

Shoir hikmatida hayotiy misolga murojaat qiladi: oshiq bo'lsang, hatto kuchukdan ham ibrat olgin deya ta'kidlaydi. Ya'ni bu yerda hayvonning o'ziga emas, balki sodiqlik hislatiga ishora qiladi. Bilamizki, itlar ko'p adabiyotlarda, nafaqat adabiyotlarda hayotda ham sadoqat timsoli. Baytda insonni yaratguvchiga it misol sodiq bo'lishiga ishora qilinadi. Shu nuqtada Ahmad Yassaviy yashagan zamonni eslashga harakat qilamiz. XII asr; mutlaq hukmronlik davri, qulchilik, feodal zamoni. Qullardan yagona talab egasiga so'zsiz bo'ysunish, o'z fikriga ega bo'lmagan holda faqat buyruqlarni ado etish. Bunday zamonda Yassaviyning baytlari yuzaki qaralganda shunchaki siyosiy adabiyot. Shu bilan bir qatorda X asrda tasavvufiy qarashlarni hisobga oladigan bo'lsak, haqiqiy ma'noda Yassaviy hikmatlarida asosiy qarash Tangriga qul bo'lish, uning chizgilari asosida yashash va nihoyat Tangri jamoliga yetishish.

"Devoni hikmat" xuddi bir yo'riqnoma. U insonni nafsparastlikdan, molparastlik, jaholatga berilish, boylikka xirs qo'yish, ma'rifatsizlikdan, insonning yirtqichlashuvidan saqlovchi bir qomus misol. Komil inson tushunchasi aslida nisbiy. Ammo, bir necha asrlardan buyon inson o'zini anglashga, komillikka intilishga harakat qilib kelmoqda. "Devoni hikmat" shaxsni shayton inkanjasidan saqlaydi, nafs yo'lida yurishdan qaytaradi. Yassaviy hikmatlarini mutolaa qilib, ozmi ko'pmi qay bir ma'noda o'z holimizga nazar tashlaymiz. Yashash tarzimiz, turmushimizni taftish qilamiz.

Ahmad Yassaviy o'zini ham tinimsiz taftish qilgan, o'z faoliyatiga baho berishga harakat qilgan. Shu ma'noda hikmatlarida asl shayxlik maqomidagi shaxs qanday bo'lishi kerakligini ham uqtirib o'tgan.

Oxir zamon shayxlaridin so'zloyin,
Iymon-islom bilmay shayxliq qilor ermish,
Ilm o'rganmay, amal qilmay, ma'ni uqmay,
Oxiratda qaro yuzluk bo'lor ermish.

Shayxlar dindan imon-e'tiqoddan bexabar holda qaror chiqarar ekan. Dunyo tanazzulga yuz tutadi, oxir zamon bo'lishi shaksiz. Har qanday kasb ilmlilikni talab qiladi. Ilm o'rganmasdan, o'rganib amal qilmasdan hukm chiqarguvchi shayxlar oxiratda "yuzi qaro" bo'lishi tayin.

Shayxman teyu mehrob ichra o'lturg'oylar,
Halqa ichra xalqg'a zahmat yetkurgoylar,
Hoyu Hu deb sarmastlig'in bildurgoylar,
Ondog' johil qandog' shayxliq qilor ermish.

Erta-yu kech shayxman deya toat ibodatdan bo'shamasa-da xalqqa hech ikkilanishsiz zulm o'tkazar ekan, unday shayxlar maqomiga loyiq emas. Shoir bu kabi din peshvolarini johil deb ataydi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yassaviyning shaxsiyatini o'zi "komil inson" tushunchasiga to'la mos tushadi. Inson o'zida borinigina o'zgalarga uqtira oladi. Shaxs sifatida kamol topgan Ahmad Yassaviy ham o'z zamondoshlarinida shu maqomga chorlaydi.

[1] Xoja Ahmad Yassaviy. DEVONI HIKMAT (Yangi topilgan namunalar). — "Movarounnahr". Toshkent -2004

Turmush tarzida soddalik, Allohga sadoqat, kasbda matonat, shayxlikda adolat Ahmad Yassaviyning komil inson konsepsiyasida to'la yoritilib beriladi.

Adabiyotlar

1. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. - Toshkent:Ma'naviyat, 2004.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. Majmua (1-2 jildlar). Tuzuvchi, izoh vasharhlar muallifi N.Rahmonov. - Toshkent: Fan, 2005, 2007.
3. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVII-XIX (I yarmi) asrlar. - Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
4. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish davri adabiyoti (Alisher Navoiy davri). - Toshkent: Tamaddun, 2016.
5. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Sano standart, 2018.